


2019-yilning yanvar-iyun oylarida O'zbekiston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019-yilning yanvar-iyun oylarida respublika korxonalarini tomonidan 147,8 trln.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi* 106,9 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 4,7 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat - 7,8 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 3,6 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish – 7,9 % ga o'sishi hisoblanadi.


2019-yilning yanvar-iyun oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

* **Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

2019-yilning yanvar-iyun oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarishning o'sishiga qo'shgan hisssasi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmi 19,4 trln.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 13,1 % ni tashkil etdi.


O'tgan yilning shu davriga nisbatan tabiiy gaz qazib olish 1,8 % ga, va shag'al – 39,8 % ga oshdi, shu bilan birga, ko'mir qazib olish 10,5 % ga, neft - 7,4 % ga, gaz kondensati - 2,6 % ga, chaqiq tosh - 9,7 % ga pasaygan.




**Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari
tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini
ishlab chiqarish**

Sanoati mahsulotlari	2018-yil yanvar-iyunda ishlab chiqarilgan	2019-yil yanvar-iyunda ishlab chiqarilgan	2018-yil yanvar-iyungaga nisbatan, %
Ko'mir, ming t.	1689,1	1512,4	89,5 ↓
Neft, ming t.	375,2	347,3	92,6 ↓
Tabiiy gaz, mln.kub.m.	29972,0	30501,2	101,8 ↑
Gaz kondensati, ming t.	1071,6	1043,4	97,4 ↓
Chaqiq tosh, ming t.	677,1	611,5	90,3 ↓
Shag'al, ming t.	208,2	291,1	139,8 ↑


Tabiiy gaz qazib olish, mlrd. kub. m
(yanvar-iyun 2016-2019 yillar)



Ko'mir qazib olish, ming t
(yanvar-iyun 2016-2019 yillar)




Neft qazib olish (sh.j. gaz kondensati), ming t
(yanvar-iyun 2016-2019 yillar)



Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 117,3 trln.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 79,4 % ini tashkil etdi.

2019 yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarish sanoati tarkibi, %




- oziq- ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, ichimliklar ishlab chiqarish, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish
- to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, kiyim ishlab chiqarish, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish
- yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohl va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish, mebel ishlab chiqarish
- yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish
- koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish
- kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish
- asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish
- boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish
- metallurgiya sanoati
- mashina va uskunalardna tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish, komp'yuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish, elektr uskunalar ishlab chiqarish, boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish, avtotransport
- boshqalar


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 1,4 % ni (2018-yil yanvar-iyun oylarida - 1,5 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 25,5 % (26,2 %), o'rta-quyi texnologiyali - 37,7 % (33,8 %) va quyi texnologiyali - 35,4 % (38,5 %) tashkil etdi.

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha
ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi

2019 yil yanvar-iyun



2018 yil yanvar-iyun



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasi - 21,7 % (2018-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi o'sishi 23,2 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 22,4 % (5,7 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish - 16,7 % (4,1 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish - 15,5 % (6,6 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish - 9,9 % (2,6 %) ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganda yuk avtomobillari - 1,6 m., yengil avtomobillar - 1,5 m., avtomobil dvigatellari - 1,6 m., avtobuslar - 3,4 m., yurguzuvchi g'ildiraklar, ularning qismlari va jihozlari - 1,5 m., radiatorlar, shovqin so'ndirgichlar va chiqarish quvurlari, ulovchi mexanizmlar, rul chamberaklari, rul kolonkalari va rul mexanizmlarining karterlari va ularning qismlari - 1,5 m. ga oshdi.

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari kimyo korxonalarini ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, kaliy xlorid (2018-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 110,9 %), karbamid (121,1 %), ammoniy sulfat (113,8 %), ammoniy nitrat (113,5 %), akril va vinilpolimerlari asosidagi bo'yoq va laklar (118,7 %), gerbitsidlar (115,5 %), kaustik soda (147,4 %), boshqa azotli o'g'itlar va ularning aralashmalari (116,6 %), azot, fosfor va kaliyli mineral o'g'itlar (115,0 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoati mahsulotlari	2018-yil yanvar-iyunda ishlab chiqarilgan	2019-yil yanvar-iyunda ishlab chiqarilgan	2018-yil yanvar-iyungaga nisbatan, %
Yengil avtomobillar, dona	81842	120005	146,6 ↑
Yuk avtomobillari, dona	1552	2456	158,2 ↑
Avtobuslar, dona	269	912	3,4 p. ↑
Avtomobil dvigatellari, dona	59860	93652	156,5 ↑
Paxta tolasi, ming t.	480,6	320,1	66,6 ↓
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	121,5	95,4	78,5 ↓

Sanoati mahsulotlari	2018-yil yanvar-iyunda ishlab chiqarilgan	2019-yil yanvar-iyunda ishlab chiqarilgan	2018-yil yanvar-iyungacha nisbatan, %
Tamaki mahsulotlari, mln. dona	5186	5537	106,8 ↑
Avtomobil benzini, ming t.	560,3	494,8	88,3 ↓
Dizel yoqilg'isi, ming t.	557,1	539,8	96,9 ↓
Portlandsement, ming t.	3953,8	4510,9	114,1 ↑
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, t.	6659,2	7904,9	118,7 ↑
Traktorlar, dona	1799	602	33,5 ↓

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9,9 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,7 % ni) tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-iyun oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab

chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 4,3 % ga oshganligi kuzatildi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalaridan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoati mahsulotlari	2018-yil yanvar-iyunda ishlab chiqarilgan	2019-yil yanvar-iyunda ishlab chiqarilgan	2018-yil yanvar-iyungacha nisbatan, %
Elektroenergiya, mln.kVt/s	30142,7	30492,4	101,2 ↑
Issqlik energiyasi, ming Gkal	15231,8	15205,4	99,8 ↓

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,2 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tarkibida alyuminiy bo'lgan ikkilamchi xom ashyo – 2,1 martaga, tarkibida mis bo'lgan ikkilamchi xom ashyo – 2,8 martaga, axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 92,5 % ga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari – 31,0 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 41,5 % ga, xavfli bo'lmagan chiqindilarni yig'ish xizmatlari – 73,3 % ga oshganligi kuzatildi.


Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoati mahsulotlari	2018-yil yanvar-iyunda ishlab chiqarilgan	2019-yil yanvar-iyunda ishlab chiqarilgan	2018-yil yanvar-iyungaga nisbatan, %	
Tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyo, ming tonna	176,8	124,8	70,6	↓
Tarkibida alyuminiy bo'lgan ikkilamchi xom ashyo, tonna	1807,0	3881,0	2,1 p.	↑
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	73,1	103,5	141,5	↑

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 48,7 trln.so'mni tashkil etdi va 2018-yilning mos davriga nisbatan 16,1 % ga o'sishni ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 33,0 % ni tashkil etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi, %



2018-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushi 67,3 % dan 2019-yilning yanvar-iyun oylarida 67,9 % ga oshishi kuzatilmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo 6,3 % ni (2018-yil yanvar-iyun oylarida 7,4 %) tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha 2019-yilning yanvar-iyun oylarida iste'mol tovarlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %	2018 yil yanvar-iyungacha nisbatan o'sish, %
O'zbekiston Respublikasi¹⁾	48748,9	100,0	116,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1013,4	2,1	108,4
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	11673,3	23,9	138,3
Buxoro	2257,7	4,6	107,4
Jizzax	970,3	2,0	104,3
Qashqadaryo	1636,2	3,4	105,4
Navoiy	1428,8	2,9	102,3
Namangan	2469,9	5,1	111,8
Samarqand	3980,0	8,2	102,3
Surxondaryo	702,2	1,4	107,0
Sirdaryo	1256,8	2,6	115,7
Toshkent	4318,6	8,9	105,3
Farg'ona	2896,6	5,9	108,5
Xorazm	2485,4	5,1	126,5
Toshkent sh.	10772,7	22,1	107,3


¹ Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda

Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 54,6 trln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 36,9 % ni tashkil etdi.

Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %.



Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmida tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarining ulushi - 21,4 %, ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari ulushi - 78,3 % ni tashkil etdi.

Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining
sanoatning umumiy hajmidagi ulushi




Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

	2019 yil yanvar-iyun, mlrd. so'm	2018 yil yanvar-iyunga nisbatan FHI, %
O'zbekiston Respublikasi¹⁾	147 831,7	106,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	6 162,9	100,5
viloyatlar:		
Andijon	14 875,4	117,8
Buxoro	7 051,7	105,4
Jizzax	2 210,7	105,0
Qashqadaryo	9 392,3	96,2
Navoiy	19 461,2	100,8
Namangan	3 711,9	109,2
Samarqand	7 131,3	109,1
Surxondaryo	1 801,7	103,0
Sirdaryo	3 291,8	101,1
Toshkent	24 650,6	110,1
Farg'ona	9 307,7	106,8
Xorazm	3 949,4	110,8
Toshkent sh.	24 434,3	103,1

¹ Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Toshkent viloyati (respublika sanoat ishlab chiqarish hajmning 16,7 %), Toshkent shahri (16,5 %), Navoiy (13,2 %), Andijon (10,1 %), Qashqadaryo (6,4 %) va Farg'ona (6,3 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Hududlar bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi, %




Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar natijasida, Andijon (2018-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 117,8 %), Xorazm (110,8 %), Toshkent (110,1 %), Namangan (109,2 %), Samarqand (109,1 %) va Farg'ona (106,8 %) viloyatlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

Shu bilan birga, Andijon (2018-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 138,3 %), Xorazm (126,5 %), Sirdaryo (115,7 %), Namangan (111,8 %), Farg'ona (108,5 %), Buxoro (107,4 %), Surxondaryo (107,0 %) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (108,4 %) iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish sezilarli darajada oshdi.

Shuningdek, iste'mol tovarlari hajmining eng katta ulushi Andijon (respublika iste'mol tovarlari hajmida 23,9 %), Toshkent shahar (22,1 %), Toshkent (8,9 %) va Samarqand (8,2 %) viloyatlarida ishlab chiqarildi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha istemol mollarning o'sish sur'atlari 2018-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan %




Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanish tahlili Navoiy viloyatida (19797,8 ming so'm), Toshkent shahrida (9680,0 ming so'm), Toshkent (8477,4 ming so'm) va Andijon (4833,1 ming so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (4427,5 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Respublika bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 1460,0 ming so'm bo'lgani holda Toshkent shahrida - 4267,8 ming so'mni, Andijon viloyatida - 3792,7 ming so'mni, Sirdaryo viloyatida 1508,0 ming so'mni, Toshkent viloyatida 1485,2 ming so'mni, Navoiy viloyatida - 1453,5 ming so'mni va Xorazm viloyatida – 1350,0 ming so'mni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan
sanoat mahsulotlari va istemol mollari ishlab chiqarish, ming so'm

	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	Istemol mollari
O'zbekiston Respublikasi	4427,5	1460,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3285,3	540,2
viloyatlar:		
Andijon	4833,1	3792,7
Buxoro	3710,1	1187,8
Jizzax	1626,8	714,0
Qashqadaryo	2910,8	507,1
Navoiy	19797,8	1453,5
Namangan	1342,6	893,4
Samarqand	1868,8	1043,0
Surxondaryo	697,7	272,0
Sirdaryo	3949,8	1508,0
Toshkent	8477,4	1485,2
Farg'ona	2517,5	783,5
Xorazm	2145,2	1350,0
Toshkent sh.	9680,0	4267,8

**2019-yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va istemol mollarining o'sishi
2018-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan %**



Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi


Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 48,4 trln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida kichik biznesning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 32,8 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Namangan (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 71,0 %), Toshkent shahrida (66,0 %), Jizzax (59,7 %), Samarqand (52,5 %), Surxondaryo (49,5 %), Sirdaryo (44,9 %) va Farg'ona (39,8 %) viloyatlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichik ulush Navoiy (12,3 %) va Qashqadaryo (19,5 %) viloyatlarida, Qoraqalpog'iston Respublikasida (22,0 %), Andijon (22,2 %) va Toshkent (25,5 %) viloyatlarida kuzatildi.


2019-yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


Bugungi kunda Respublikada 66,6 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 14,5 mingtasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 21,8 %) Toshkent shahriga, 7,3 mingtasi (11,0 %) Farg'ona viloyatiga va 6,8 mingtasi (10,2 %) Toshkent viloyatiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik (2019-yil 1 iyul holatiga)



2019-yil yanvar-iyun oylarida Respublikada 12264 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 51,2 foizi Toshkent shahri, Namangan, Toshkent, Samarqand va Farg'ona viloyatlariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik
(2019-yil yanvar-iyun)



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi

Respublika sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi, mazkur dastur doirasida kiritilgan 587 ta loyiha bo'yicha 7,9 trln.so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib, 244,4 mln.AQSH dollari miqdorida mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi va 1947 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

O'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 2019 yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 3,9 martaga oshdi. Shu bilan birga, 2018 yil yanvar-iyungacha nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlarni eksport hajmi pasayishi kuzatildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining asosiy ko'rsatkichlari

	2018 yil yanvar-iyun	2019 yil yanvar-iyun
Loyihalar soni, birlik	667	587
Korxonalar soni, birlik	281	229
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm	7425,4	7912,7
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSH doll	262,5	244,4
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	500	1947

Sanoat statistikasi boshqarmasi

Aloqa telefoni: (71) 230-80-48